

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
360 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	




Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	

SMART TOURISM KONSEPSIYASINING O'ZBEKISTONDA JORIY ETILISHI: INFRATUZILMA, XIZMATLAR VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR TAHLILI



Abriev Zoirjon

Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD. TDIU.

Annotatsiya: Ushbu maqolada smart tourism konsepsiyasi doirasida O'zbekiston turizm sohasida raqamli infratuzilma, zamonaviy xizmatlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish holati tahlil qilinadi. Turizmning raqamli transformatsiyasi jarayonida Internet of Things (IoT), Big Data, mobil ilovalar, QR-kodli gid xizmatlari, AR/VR texnologiyalari asosida shakllanayotgan aqlli xizmatlar turlarining mamlakatda qanday shakllanayotgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, respublikaning turizm infratuzilmasi raqamlashtirilishi, elektron vizalar, onlayn bronlash tizimlari, mobil xizmatlar va mahalliy hamda xalqaro tashrif buyuruvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: smart tourism, raqamli texnologiyalar, IoT, Big Data, AR/VR, elektron viza, mobil ilova, turizm infratuzilmasi, xizmat sifati, onlayn bronlash, digital gid, sun'iy intellekt, mehmonxona tizimi, elektron xaritalar, xavfsiz sayohat, tajriba iqtisodiyoti, interaktiv xizmatlar, barqaror turizm.

Abstract: This article analyzes the implementation of the smart tourism concept in Uzbekistan, focusing on digital infrastructure, modern services, and innovative technologies. The study examines how smart services based on the Internet of Things (IoT), Big Data, mobile applications, QR-code guided tours, and AR/VR technologies are being developed in the country. It also explores the level of digitalization in the national tourism infrastructure, the use of e-visas, online booking systems, mobile services, and the quality of service provided to both domestic and international tourists.

Keywords: smart tourism, digital technologies, IoT, Big Data, AR/VR, e-visa, mobile application, tourism infrastructure, service quality, online booking, digital guide, artificial intelligence, hotel system, digital maps, safe travel, experience economy, interactive services, sustainable tourism.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние внедрения концепции «умного туризма» в Узбекистане в контексте цифровой инфраструктуры, современных туристических услуг и инновационных технологий. В процессе цифровой трансформации туризма анализируется развитие интеллектуальных сервисов, основанных на технологиях Интернета вещей (IoT), больших данных (Big Data), мобильных приложений, QR-гидов и технологий AR/VR. Также изучается уровень цифровизации туристической инфраструктуры страны, внедрение электронной визы, онлайн-бронирования, мобильных сервисов и качество обслуживания как для местных, так и для иностранных туристов.

Ключевые слова: умный туризм, цифровые технологии, IoT, Big Data, AR/VR, электронная виза, мобильное приложение, туристическая инфраструктура, качество услуг, онлайн-бронирование, цифровой гид, искусственный интеллект, гостиничные системы, электронные карты, безопасное путешествие, экономика впечатлений, интерактивные сервисы, устойчивый туризм.

KIRISH

So'nggi yillarda global turizm sohasi raqamli transformatsiyaning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. An'anaviy turistik xizmatlar o'rnini bosayotgan raqamli texnologiyalar — xususan, Internet of Things (IoT), Big Data, mobil ilovalar, QR-kodli gid xizmatlari, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt — sayyohlik tajribasini yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va xavfsiz holga keltirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu jarayon jahon turizm industriyasida "Smart Tourism" nomi bilan tanilgan yangi yondashuvni shakllantirmoqda. Aqlli turizm konsepsiyasi nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, balki sayohatchilar uchun qulay muhit yaratish, infratuzilmani optimallashtirish va davlat darajasida strategik turizm boshqaruvini raqamlashtirish imkonini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, milliy turizm strategiyasida raqamli transformatsiyani ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida



belgilagan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli farmonida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Turizm sohasini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish va jahon standartlariga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi." [PF–60, 28.01.2022]. Mazkur strategiya doirasida e-visa.uz portali, "E-mehmonxona" tizimi, raqamli statistika platformalari, sayyohlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar, Toshkent–Samarqand–Buxoro kabi yo'nalishlarda smart gid xizmatlari va elektron xaritalar bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, Samarqandda "Silk Road Samarkand" turizm majmuasining ochilishi va raqamli xizmatlar bilan integratsiyasi bu yo'nalishda katta yutuq sifatida e'tirof etiladi. Smart turizm O'zbekistonda ayniqsa Madaniy meros ob'ektlari asosida tajriba iqtisodiyoti (experience economy) tamoyillarini kengaytirishda qo'llanilmoqda. Masalan, sayyohlar mobil ilovalar orqali tarixiy obidalar haqida audio-gidlar yordamida real vaqt rejimida ma'lumot olishlari, AR texnologiyalari orqali obidaning tarixiy qiyofasini ko'rishlari va sayohat davomida interaktiv xaritalardan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi — mehmonxonalar, transport, IT xizmatlari — raqamli transformatsiyaga tayyorlik darajasi, xizmat ko'rsatish sifati va xorijiy sayyohlar bilan ishlashdagi zamonaviy yondashuvlar Smart Tourism konsepsiyasining samarali joriy etilishi uchun muhim mezon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, zamonaviy turizm sohasi nafaqat sayyohlik xizmatlari, balki xalqaro investitsiya, kadrlar salohiyati, huquqiy baza, ekologik barqarorlik va innovatsion infratuzilma bilan chambarchas bog'liq. Mazkur ilmiy maqola O'zbekistonda smart turizmni rivojlantirish holati va istiqbollari tizimli o'rganishga qaratilgan. Unda bir tomondan xorijiy ilg'or tajribalar, ikkinchi tomondan O'zbekiston sharoitida joriy etilayotgan raqamli xizmatlar va infratuzilma tahlil qilinadi. Shuningdek, amaldagi loyihalar, ularning samaradorligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari metodologik asosda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Smart tourism konsepsiyasi bugungi global turizm sanoatining muhim strategik yo'nalishiga aylangan bo'lib, u zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali xizmatlar sifati, infratuzilma samaradorligi va mijozlar ehtiyojiga moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan. O'zbekiston olimlari ushbu yo'nalishda izchil izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, X. Yo'ldoshev turizm raqamlashtirish jarayonining xizmatlar diversifikatsiyasiga ta'sirini tahlil qilarkan, "raqamli xizmatlar turizmda mijoz orientatsiyasini kuchaytiradi" deya ta'kidlaydi [1]. B. Qodirov esa smart turizmni O'zbekiston sharoitida joriy etishdagi infratuzilmaviy muammolarni tahlil qilib, "raqamli xizmatlar faqat axborot emas, balki ishonch va xavfsizlik tizimini ham yaratishi kerak" degan fikrni ilgari suradi [2]. U bu bilan mehmonxona tizimlarida xavfsizlik algoritmlarini joriy qilish zaruratiga urg'u beradi. A. Tursunov O'zbekistondagi elektron viza tizimining joriy etilishi xorijiy sayyohlar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini empirik ma'lumotlar asosida isbotlaydi. Unga ko'ra, 2019-yilgi elektron viza islohoti natijasida tashrif buyuruvchilar soni 24 foizga oshgan [3]. T. Ibragimova va M. To'xtasinova o'z tadqiqotlarida smart turizm Big Data texnologiyalarining imkoniyatlarini ko'rsatib, "analitik xizmatlar turizm oqimlarini oldindan prognoz qilish imkonini beradi" degan xulosaga keladilar [4][5]. G. Narzieva esa smart turizmga o'ziga xos yondashuv bilan qaraydi. U raqamli texnologiyalar orqali nafaqat xizmatlar, balki madaniy merosning saqlanishi va taqdimoti yo'lga qo'yilishini muhim deb biladi [6]. Ayni paytda xorijiy tadqiqotchilar ham bu sohada muhim g'oyalarni ilgari surishgan. Xususan, Buhalis va Amaranggana (2015) smart turizmni "raqamli axborot, mobil texnologiyalar va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida shakllanadigan, foydalanuvchi markazlashgan turizm modeli" deb ta'riflaydi [13]. Ular ushbu modelni innovatsion xizmatlar orqali sayyohlarning real vaqtli ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini ko'rsatadilar. Gretzel (2011) o'z tadqiqotida turizmning raqamli ekotizimini ijtimoiy tarmoqlar va mijoz xatti-harakatlari bilan bog'laydi [14]. Uning fikricha, smart turizm "interaktiv, ma'lumotga boy va raqamli o'zaro ta'sirga asoslangan holatni anglatadi." X. Jamolov, D. Axmedov, I. Rasulov, Z. Ashurova, M. Saydaliyev, L. Shokirova singari olimlar esa smart turizm O'zbekiston bozorida xizmatlar sifatini oshirish, mehmonxonalarining raqamli tizimga o'tishini tezlashtirish va sayyohlarning mobil ehtiyojlariga mos ekotizimni shakllantirishda muhim rol o'ynashini qayd etadilar [7–12]. Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy manbalar smart turizm konsepsiyasini rivojlantirishda texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro integratsiyasini nazariy va amaliy asoslashga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasida smart tourism konsepsiyasining joriy etilishi, raqamli infratuzilma va innovatsion xizmatlar holati va ularning samaradorligini empirik asosda baholashdan iborat. Shu maqsadda, kompleks metodologik yondashuv tanlandi, ya'ni tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar integratsiyasi asosida tahlil olib borildi.

1. Tadqiqot yondashuvi

Tadqiqot dizayni holat tahlili (case study) va deskriptiv-analitik yondashuvga asoslanadi. O'zbekiston misolida smart turizm joriy etilgan platformalar, xizmatlar va infratuzilma elementlari chuqur tahlil qilindi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlarida turizm raqamlashtirish darajasi bo'yicha joylarda kuza-tuvlar, intervyular va ikkilamchi statistik ma'lumotlar asosida baholash amalga oshirildi.

2. Ma'lumot manbalari

- Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ma'lumot manbalari quyidagilardan iborat:
- O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi statistik hisobotlari;
- Dastlabki axborotlar: "E-mehmonxona" tizimi, e-visa.uz, Uzbekistan.travel portali statistikasi;
- Xalqaro tashkilotlar hisobotlari: UNWTO, WTTC, OECD;
- Mahalliy hokimiyatlar va turizm kompaniyalari bilan o'tkazilgan intervyular;
- Turizm bo'yicha raqamli ilovalar (Uzbekistan Guide App, Discover Uzbekistan, Smart Guide Samarkand).
- Ushbu ma'lumotlar asosida raqamli xizmatlar soni, ulardan foydalanuvchilar oqimi, xizmat turlari, texnik imkoniyatlar, foydalanuvchi qoniqish darajasi kabi mezonlar tahlil qilindi.

3. Tadqiqot vositalari

Anketalash usuli: 240 nafar xorijiy va mahalliy sayyohlar orasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Anketada asosiy e'tibor quyidagi savollarga qaratildi: raqamli xizmatlardan foydalanish tezligi, ularning sifati, mobil ilovalarning qulayligi, xavfsizlik, shaxsiy axborot muhofazasi, sun'iy intellekt elementlari qo'llanilishi.

Yarim tuzilgan intervyular: 15 ta turizm sohasi mutaxassislari (shu jumladan mehmonxona administrator-lari, gidlar, IT-xizmat provayderlari) bilan sifatli suhbatlar o'tkazildi. Bu metod orqali amaliy muammolar, xizmat-lar muvofiqligi, raqamlashtirishda uchrayotgan to'siqlar haqida chuqur ma'lumot olindi.

Kuzatuv (observatsiya): Turizm maskanlarida joylashgan raqamli axborot panellari, Wi-Fi tarmog'i mavjud-ligi, mobil ilova bilan bog'liq foydalanuvchi interfeysi, QR-gidlar va avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari bevosita joyida baholandi.

4. Baholash mezonlari

Baholashda quyidagi 5 asosiy yo'nalish bo'yicha indikatorlar ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval: Smart turizmni baholash uchun yo'nalishlar va ko'rsatkichlar tizimi.

Yo'nalish	Ko'rsatkichlar
Raqamli xizmatlar	QR-gidlar, e-visa, mobil ilovalar mavjudligi
Texnologik infratuzilma	Internet tezligi, interaktiv xaritalar, "smart kiosks"
Foydalanuvchi tajribasi	Interfeys qulayligi, xizmatga kirish tezligi
Integratsiya darajasi	Ichki IT tizimlar bilan bog'lanish (mehmonxona, transport)
Innovatsion yechimlar	VR/AR, sun'iy intellekt, chatbot xizmatlari

Indikatorlar har bir shahar uchun 5 ballik tizimda baholandi, ularning umumiy qiymatlari keyingi bo'limda jadvallar shaklida keltiriladi.

5. Tahlil yondashuvi

Olingan ma'lumotlar deskriptiv statistika, korrelatsion tahlil va tarkibiy baholash (component analysis) usullari orqali qayta ishlanadi. Microsoft Excel, SPSS va Power BI dasturlaridan foydalanildi. Ayniqsa, foyda-lanuvchi tajribasi (user experience – UX) indeksini baholashda Likert shkalasidan foydalanildi (1 – umuman qoniqmagani, 5 – to'liq qoniqdi).

6. Metodologik cheklovlar

Tadqiqotda ba'zi cheklovlar mavjud: ma'lumotlar asosan 2022–2024 yillar oralig'ida to'plangan, barcha turizm xizmat ko'rsatuvchilarga intervyu olish imkoni bo'lmagan. Shuningdek, ayrim texnologik xizmatlar (AR/VR) hali to'liq joriy qilinmagani sababli statistik asoslar cheklangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning turizm sohasida raqamli transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini, biroq bu jarayon hududlar bo'yicha sezilarli tafovutlar bilan kechayotganini ko'rsatdi. Smart turizmning asosiy elementlari bo'lgan raqamli infratuzilma, foydalanuvchiga yo'naltirilgan xizmatlar va texnologik innovatsiyalarning mavjudligi har bir shahar kesimida farqlanmoqda.

Avvalo, raqamli infratuzilma darajasi yuqori bo'lgan shaharlarda xizmatlar xilma-xilligi va sayyohlarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi ham yuqori. Toshkent shahrida mavjud bo'lgan "E-mehmonxona" tizimi, elektron viza portali, sayyohlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar, Wi-Fi punktlari va QR-gidlar orqali smart turizm infratuzilmasi sezilarli darajada shakllangan. Samarqandda esa ayniqsa QR-gid va mobil interak-tiv xizmatlar samaradorligi yuqori baholandi, bu sayyohlarning o'z marshrutlarini mustaqil tashkil etish imkoni-yatlarini kengaytirmoqda.



Shu bilan birga, tarixiy-madaniy turizm markazlari bo'lgan Buxoro va Xiva shaharlarida texnologik yechimlarning joriy etilishi sust ketmoqda. Mazkur hududlarda raqamli to'lovlar, mobil navigatsiya tizimlari, chatbotlar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar deyarli mavjud emas. Internet tezligi, interaktiv xizmatlarga ulanish sifati va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlari yetarli emasligi, xizmatlar integratsiyasining pastligi bu holatning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

2-jadval: Smart turizm infratuzilmasi mavjudligi bo'yicha baholash (5 ballik tizimda).

Shahar	Internet tezligi	QR-gidlar mavjudligi	Mobil ilovalar	E-visa integratsiyasi	Smart kiosklar	Wi-Fi punktlari	Umumiy ball
Toshkent	5	5	4	5	3	5	27
Samarqand	4	5	4	4	2	4	23
Buxoro	3	4	3	4	1	3	18
Xiva	2	3	3	3	1	2	14
Termiz	2	1	2	2	0	1	8

2-jadval smart turizm konsepsiyasini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etuvchi infratuzilma elementlarini 5 ballik tizim asosida baholaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Toshkent shahri 27 ball bilan yetakchilik qiladi. Buning sababi sifatida, poytaxtda ilgari surilgan raqamli transformatsiya loyihalari, investorlar faoliyati va turizm xizmatlarining ko'p tarmoqli rivojlanishi aytib o'tish lozim. Samarqand shahri 23 ball bilan ikkinchi o'rinda. Shaharda "Silk Road Samarkand" kabi mega-loyihalarning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi, smart kiosklar, QR-gidlar va mobil ilovalarning qo'llanilishi turizm sohasini sezilarli darajada transformatsiya qilgan. QR-kod asosida ma'lumot beruvchi tizimlar sayyohlarning madaniy obidalarga bo'lgan qiziqishini oshiradi va turistik marshrutlarni mustaqil tuzish imkonini beradi. Buxoro va Xiva shaharlari esa tarixiy boy merosga ega bo'lishlariga qaramay, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi nuqtai nazaridan nisbatan orqada qolmoqda. Jumladan, Buxoro 18 ball bilan baholangan bo'lib, bu shaharda Wi-Fi punktlari sonining yetishmasligi, smart kiosklar bo'lmashligi va mobil ilovalar sifati pastligi bilan bog'liq. Xivada esa bu ko'rsatkich atigi 14 ballni tashkil etadi. Termiz shahri misolida esa smart infratuzilma deyarli mavjud emas. Bu esa turizm strategiyasining hududiy nomutanosibligini ko'rsatadi. Mazkur hududlarda internet tezligi pastligi, QR-gidlar mavjud emasligi va raqamli to'lov tizimlarining yo'qligi raqamli sayyohlik xizmatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaning joriy etilishi bevosita markazlashgan investitsiyalar, siyosiy e'tibor va xalqaro hamkorlik loyihalariga bog'liqdir. Infratuzilmaviy tengsizliklarni bartaraf etish uchun mintaqaviy raqamli transformatsiya dasturlari zarur.

3-jadval: Sayyohlar tomonidan raqamli xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari (foiz hisobida).

Shahar	Mobil ilovadan foydalanganlar (%)	QR-gid foydalanuvchilari (%)	E-visa	Onlayn bron qilish (%)	Virtual xarita ishlatganlar (%)	Raqamli to'lov (%)	O'rtacha qoniqish (%)
Toshkent	78	65	92	83	70	75	82
Samarqand	70	80	85	76	62	65	76
Buxoro	60	58	70	65	50	52	64
Xiva	48	44	66	58	40	38	52
Termiz	25	18	32	30	15	10	28

3-jadvalda O'zbekistonning turistik shaharlari bo'yicha foydalanuvchi darajasida raqamli xizmatlardan foydalanish foizi ko'rsatilgan. Ushbu ko'rsatkichlar sayyohlarning real amaliy tajribasini ifodalaydi va smart turizmning samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahri yana yetakchilik qilmoqda — e-visa tizimidan foydalanuvchilar 92 foizni tashkil etadi. Bu xizmat xorijlik sayyohlar uchun eng qulay va tezkor vosita bo'lib, pasport va biometrik ma'lumotlar asosida 3 kun ichida vizani olish imkonini beradi. Shuningdek, mobil ilovadan foydalanish 78 foizni tashkil etgani — poytaxtdagi xizmatlar interaktivligining yuqoriligidan dalolat beradi. Samarqandda esa QR-gid xizmatlaridan foydalanuvchilar ulushi 80 foizga yetgan. Bu, shaharning boy madaniy obidalar majmuasiga ega ekani va ushbu obidalarni tushuntirish uchun raqamli yechimlar keng joriy

etilganini ko'rsatadi. Onlayn bron qilish 76 foizga yetgan bo'lib, bu sayyohlar orasida mustaqil xizmat tanlash va xarid qilish tendensiyasining kuchayganidan dalolat beradi. Buxoro va Xiva shaharlari bu borada o'rtacha pozitsiyalarda bo'lib, xizmatlardan foydalanish 50–60 foiz atrofida. Bu raqamlar smart texnologiyalar xizmatga joriy etilgan bo'lsa-da, foydalanuvchilarning xabardorligi yoki xizmatlarning intuitiv emasligi sababli to'liq ishlatilmayotganini anglatadi. Termiz shahrida raqamli xizmatlardan foydalanish foizlari juda past. Bu esa turistik infratuzilmaning sustligi bilan bir qatorda, marketing va xizmatlarni tanitishning yetarli emasligi bilan bog'liq. Jadval sayyohlar orasida mobil ilovalar va e-visa eng ko'p talab qilinayotgan xizmatlar ekanligini ko'rsatadi. Raqamli xaritalar, chatbotlar va virtual gidlar esa hanzuz past ko'rsatkichlarda bo'lib, bu yo'nalishlarda foydalanuvchi o'rgatuvchi va foydali interfeyslar yaratilishi lozimligini bildiradi.

4-jadval: Innovatsion yechimlar mavjudligi va joriy etilganlik darajasi.

Hudud	AR/VR xizmatlari	Chatbotlar	Sun'iy intellekt (AI)	Raqamli xavfsizlik	IoT xizmatlari	Data analytics qo'llanilishi	Innovatsion indeks (maks 30)
Toshkent	4	5	4	5	3	5	26
Samarqand	3	4	3	4	2	4	20
Buxoro	2	3	2	3	1	3	14
Xiva	1	2	1	2	0	2	8
Termiz	0	1	0	1	0	1	3

4-jadvalda zamonaviy texnologiyalar — AR/VR, sun'iy intellekt, IoT, data analytics — turizmga qanday joriy etilganligi o'rganilgan. Bu texnologiyalar smart turizmning ilg'or bosqichini tashkil etadi. Toshkent yana eng yuqori natijani (26 ball) ko'rsatmoqda. Poytaxtdagi mehmonxonalar va aeroport tizimlarida chatbot yordamida onlayn registratsiya, AI asosidagi shaxsiy takliflar, tashrifchilar oqimini taxminlovchi analitik xizmatlar mavjud. AR/VR xizmatlari, masalan, Toshkentdagi Amir Temur maydonida, mobil ilova orqali virtual tarixiy ekskursiya shaklida taqdim etilmoqda. Samarqandda AR tajriba zonalarini sinov tarzida joriy etilgan bo'lsa-da, IoT xizmatlari (masalan, aqlli yo'l ko'rsatkichlar, smart parkovkalar) hanzuz to'liq joriy etilmagan. Data analytics vositalariga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari — asosan turistik agentliklar darajasida qo'llaniladi. Buxoro va Xiva kabi shaharlar hali bu texnologiyalarni joriy etishda sust harakat qilmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar (chatbot, foydalanuvchi profilingi) mavjud emas. Mahalliy turizm kompaniyalari yetarli IT-resurslarga ega emas, davlat tomonidan raqamli texnologiyalarga subsidiya ajratilishi zarur. Termiz esa umuman innovatsion texnologiyalardan foydalanmayotgan hudud sifatida ko'rilmogda. Bu raqamli tengsizlikka olib kelmoqda va ichki turizmni kengaytirishda to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, smart turizmga texnologik taraqqiyot muhim rol o'ynaydi, biroq u har bir hududda bir xil sur'atda ketmayapti. Uskunalar yetkazib berish, kadrlar salohiyati va IT-infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini ishga solish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, raqamli xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish, AR/VR va IoT texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, mahalliy IT-startaplar bilan turizm sohasi integratsiyasini kuchaytirish orqali smart turizm rivojiga yangi bosqichga o'tish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining raqamli transformatsiyaga yo'naltirilishi, ayniqsa, smart turizm konsepsiyasining milliy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalashuvi muhim bosqichga kirganini ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni turizm infratuzilmasiga joriy etish orqali xizmatlar sifati, sayyohlar oqimi va turizm salohiyati sezilarli darajada oshirilmoqda. Biroq, jarayon hududlararo tafovutlar, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar, malakali kadrlar tanqisligi va texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi bilan murakkablashmoqda. Tahlil qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent va Samarqand shaharlari smart turizm elementlari — QR-gidlar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, e-visa platformalari, chatbot va analitik tizimlar — bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Boshqa yirik turistik shaharlarda (Buxoro, Xiva, Termiz) esa bu kabi texnologiyalar sust rivojlanmoqda yoki joriy qilinmagan. Bu raqamli tengsizlik, turizm xizmatlarining bir xil darajada ko'rsatilmasligiga olib kelmoqda va mamlakat bo'yicha umumiy turistik tajriba sifati bir xil emasligini ko'rsatmoqda. Xorijiy tajribalar (Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur) bilan solishtirilganda, O'zbekiston hali "aqlli shahar — aqlli turizm" yondashuvini to'liq joriy etmagan. Bu borada hukumat, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt, IoT, AR/VR texnologiyalari orqali foydalanuvchi markazlashgan xizmatlarni yaratish, shuningdek, sayyohlar harakatini oldindan prognoz qiluvchi Big Data tizimlarini yo'lga qo'yish O'zbekistonning turizm raqobatbardoshligini oshi-



radi. Shuningdek, sayyohlar tomonidan xizmatlardan foydalanish statistikasi shuni ko'rsatdiki, xizmat mavjud bo'lishi yetarli emas — uning foydalanish qulayligi, interfeys soddaligi va xavfsizlik kafolati raqamli xizmatlarni ommalashtirishda hal qiluvchi omillardir. Shu sababli, raqamli xizmat dizaynida foydalanuvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosiy mezon bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev X. Turizm raqamlashtirish jarayonlari va xizmatlar sifati. — Toshkent, 2021.
2. Qodirov B. Raqamli iqtisodiyotda turizm: muammolar va yechimlar. — Samarqand, 2020.
3. Tursunov A. Elektron viza tizimi va turizm oqimlari: tahlil va natijalar. // Iqtisodiyot va turizm, 2022.
4. Ibragimova T. Smart turizm va analitik yondashuvlar. — Buxoro, 2021.
5. To'xtasinova M. Big Data asosida turistik tahlil. // Zamonaviy iqtisodiyot, 2023.
6. Narzieva G. Madaniy merosni raqamli muhitda targ'ib qilish. — Toshkent, 2022.
7. Jamolov X. Turizm IoT texnologiyalari qo'llanilishi. — Andijon, 2022.
8. Axmedov D. Aqlli xizmatlar va turizm innovatsiyalar. — Qarshi, 2023.
9. Rasulov I. Turizm mobil ilovalarning roli. — Namangan, 2021.
10. Ashurova Z. Smart turizm va mijoz ehtiyojlari. — Urganch, 2023.
11. Saydaliyev M. Raqamli turizm infratuzilmasi. — Nukus, 2023.
12. Shokirova L. Sayyohlik xizmatlarida raqamli konnektivlik. — Farg'ona, 2024.
13. Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations. — Information and Communication Technologies in Tourism, 2015.
14. Gretzel U. Intelligent systems in tourism: A social science perspective. — Annals of Tourism Research, 2011.
15. Xiang Z. Big Data and Smart Tourism Analytics. — Journal of Travel Research, 2016.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100